

XIVA XONLIGI VA ROSSIYA IMPERIYASI O'RTASIDAGI IJTIMOY-IQTISODIY MUNOSABATLAR TARIXI VA TARIXSHUNOSLIGI

I.Jalilov

*Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari
(mamlakatlar bo'yicha) mutaxassisligi magistranti*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Xiva xonligi va Rossiya imperiyasi o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tarixi va tarixshunosligi haqida qimmatli ma'lumotlar haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Chor Rossiyasi, imperator, Muhammad Rahimxon, Asfandiyorxon, Junaidxon, Fon Kaufman.*

Rossiya imperiyasi tomonidan Xiva xonligining bosib olinishi va bosqinchilarning Xiva xonligida amalga oshirgan zo'ravonlik, qirg'in, talon-tarojlari to'g'risida bayon qiluvchi voqealar tarixi, Rossiya hukmronligi davrida uning Xiva xonligida yuritgan mustamlakachilik siyosatiga doir voqealar uzoq yillar davomida xalqdan berkitildi yoki mustamlakachilarning xonlikda yuritgan har qanday harakati xorazmliklar taq-dirida ularni taraqqiyot sari eltuvchi muhim omil sifatida talqin qilindi. Mazkur kitobda qayd qilingan boshqa masalalar yuzasidan ko'plab tarixiy manbalar o'rganilib, tah-lil qilinishi asosida quyidagi xulosaga kelindi:

Rossiya imperiyasi Xiva xonligini zo'ravonlarcha bosib oldi va 1873- yil avgustida imzolangan Gandimiyon shartnomasi bilan uni o'z vassaliga aylantirdi. Bosib olish xorazmliklarni shafqatsiz qirg'in, talon-taroj qilish bilan amalga oshirildi. Buni bosqinchilarning Pitnak yaqinida Amudaryodan chap tomonga o'tishi bilanoq qishloqlarga aholidan oziq-ovqat, yem-xashak yig'ib olish maqsadida 2 to'p bilan qurollangan 4 ta rota va 250 nafar kazaklardan iborat otryad yuborib, ularni vayron qilganliklari;

Bosqinchilarning Mang'it qal'asi atrofidagi qishloqlarda va qal'ada shafqatsiz qirg'in, talon-taroj qilganliklari; turkman elatlari ustiga yurishida ularning xotin-xalaj, qari-qartang, yosh go'daklarigacha qirib tashlab, qishloqlari, daladagi bug'doy boshloqlariyu uyilgan xirmonlarigacha yondirib, molu-mulklarini ochko'zlarcha talon-taroj qilib, shaf-qatsizliklar qilganliklari;

xonlik poytaxtini egallashda ko'pgina vatan himoyachilarining qoniga zavol bo'lib, qal'aga to'plardan tinimsiz o'qlar yog'dirib, asrlar davomida saqlanib kelayotgan qadimiy yodgorliklarga zarar yetkazganliklari va xon saroyini talon-taroj qilib, xorazm-

liklarning moddiy, ma'naviy boyliklarini Peterburgga tashib olib ketganliklari misollarida ko'rish mumkin.

Rossiyaning Xiva xonligi ustiga bosqinchilik yurishi, Rossiya generali Kaufmanning Muhammad Rahimxonga ta'na qilganidek, xivaliklarning «qaysar»ligi tufayli amalga oshirilmasdan, aslida bu yurishga Pyotr I zamonasidayoq kirishilgan edi. Rossiya

hukmdorlari bu rejasidan o'tgan bir yarim asr davomida ham qaytmagan edilar. Uni amalga oshirish harakatlarini to'xtovsiz davom ettiraverdilar. 1717-1858 yillarda Rossiya tomonidan Xiva xonligiga besh marotaba harbiy ekspeditsiya tashkil qilinishi bunga dalildir.

Xorazmliklar dushman qo'shinining Xiva xonligi ustiga o'ngdan va so'ldan boshlagan bosqinchilik yurishiga qarshi ona Vatan himoyasiga otlandilar. Vatan himo-yachilari general Kaufman qo'mondonligida Jizzax usti bilan yurish qilib kelayotgan Rossiya qo'shiniga Xolota, Ucho'choq, Sardoba ko'li mavzellarida va Odam qirilgan, Oltiquduq hududlarida qarshi chiqib, ularni Amudaryodan chap tomonga o'tkazmaslik uchun bosqinchilar bilan jang qildilar, g'arbdan - Qo'ng'iro't tomonidan general Veryovkin va polkovnik Lomakin qo'mondonliklari yurish qilib kelayotgan qo'shma armiyaga qarshi Xo'jayli yo'lida, Mang'it qal'asi ostonalarida shijoat bilan janglar olib bordilar. Vatanparvarlar ayniqsa Mang'it qal'asi uchun bo'lgan jangda Xiva shahri ostonasidagi va poytaxt ichkarisidagi to'qnashuvlarda dushmanga qarshi hayot-mamot janglarini olib bordilar. Yovmut vatanparvarlarining Ilonli yaqinidagi Chandir qishlog'i-da bosqinchilarga qarshi olib borgan jangu-jadallari dushmanni esankiratib qo'ydi. Bu jangda bosqinchilar katta talafot ko'rdi va vahimaga tushib koldi. Bularning hammasi sho'rolar davrida hukmron bo'lgan, «xivaliklar Rossiya qo'shiniga qarshilik ko'rsat-magan», degan da'voning afsona ekanligini isbotlaydi. Shu joyda bosqinchilarga qarshi janglarda vatanparvarlarning shijoat bilan kurashganliklarini ta'kidlash bilan birga, xon hukmdorlari tomonidan jangchilarga jangovarlik san'atini o'rgatishga va qo'shin qudra-tini mustahkamlab, uni Vatan mudofaasiga tayyorlashga e'tibor berilmaganligini ham qayd qilish o'rinlidir.

Xiva xoni Muhammad Rahimxonning 1873- yil 12 -iyundagi farmoni bilan qul mehnatidan foydalanishning batamom tugatilishini Xiva ustidan Rossiya hukmronli-gining o'rnatilishi bilan butunlay bog'lash to'g'risidagi sho'rolar davrida ustun bo'lgan fikrni quvvatlab bo'lmasdi, deb o'ylaymiz. Chunki X IX asrning ikkinchi yarmiga kel-ganda Xiva xonligida ham yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar natijasida qo'l kuchidan foydalanishga zarurat ham qolmagan edi. Xiva xonligida Rossiya hukmronli-gining o'rnatilishi bilan Rossiya-Xiva savdo-sotig'ida sezilarli darajada o'zgarish yuz

berib, ikki oradagi savdo aylanmasi bir necha bor o'sganligiga; pul-tovar munosabatlarining yuksala borishi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga ham kirib borayotganligiga va xonlikda qishloq xo'jaligi mahsulotlariga dastlabki ishlov berish korxonalarining

ortib borishiga qaramasdan xorazmliklar yelkasidagi zulm yanada ortdi. Endilikda ular mustamlakachilik zulmi asoratiga ham tushdilar. Xonlik fuqarolari yelkasida xilma-xil ko'rinishdagi mustamlakachilik zulmidan tashqari, xon saroyida mustamlakachi amal-dorlar kasofati bilan fitna, guruhbozlik kuchaydi, shariatga putur yetkazildi. Xon huku-matining inon-ixtiyori Rossiya amaldorlari qo'lga o'tdi. Mamlakat xalqlari oralarida nizolar kuchaydi. Xonlik yerlariga ruslarni ko'chirish va rus qishloqlarini barpo qilish xavfi yuzaga chiqdi. Bularning barchasi mamlakatda vaziyatni keskinlashtirdi.

Gandimiyon shartnomasi xonlikda Rossiya savdo-sanoat va bank kapitaliga cheksiz imkoniyatlar yaratishi bilan u endigina yuzaga kelayotgan xorazmlik tadbirkor, ishbi-larmon

savdo-sanoatchilar yo'lini to'sib qo'ydi. 1910-1911-yillarda Xiva xonligida islohot tadbirlari boshlandi, yig'ib olinadigan son-sanoqsiz soliq va yig'imlar tizimida, fuqarolarning davlat oldidagi turli-tuman majburiyatlarni bajarishlarida, xon va amal-dorlarning mamlakatni boshqarishi kabi muhim sohalarda asrlar davomida xonlik hayotiga kiritilgan tartib va qoidalarga amal qilib kelinishi jamiyat taraqqiyotiga to'siq bo'la boshladi. Mustamlakachilar hukmronligi davrida xonlik hayotidagi nomutanosib-liklar yanada keskinlashdi. Mamlakatni boshqarishda xon mustamlakachi amaldor-larning qo'g'irchog'iga aylandi, xon amaldorlarining fuqarolarga nisbatan o'z amalini suiste'mol qilish imkoni ortdi.

Bularning barchasi xonlik ijtimoiy-iqtisodiy hayotida islohot o'tkazilishi zaruratini kun tartibiga qo'ygan edi. Biroq xonlikdagi katta yer egalari, hukumat amaldor-lari faqat o'z manfaatlarini ko'zlab, mamlakatni taraqqiyot, ma'rifat tomon eltuvchi shiddat bilan boshlayotgan islohotlar barbod qildilar. Xalq jonkuyari Islomxo'ja qatl qilindi. Xalqlar yelkasidagi mustamlaka zulmi ortishi davom etdi. Islohot dushmanlari uning yo'lini to'sishga ulgurganlariga qadar ma'rifat va tibbiyot sohalarida boshlangan va amalga oshirilgan ba'zi tadbirlarning Xorazm xalqlari hayotida sezilarli iz qoldirgan-liklari to'g'risida ham xulosada qayd qilish o'rinlidir. Islomxo'ja tashabbusi va jonku-yarligida kasalxona va pochta-telegraf uchun qurilgan binolar shu kunlarda ham xo-razmliklarga to'la quvvat bilan xizmat qilmoqda. Shohobod, Polvon va G'ozibod kanallariga qurilgan temir konstruksiyali ko'priklar xizmatidan xorazmliklar 50-60 yil davomida foydalandilar. Islomxo'ja boshlagan ulug' ishlarning debochasi bo'lmish bu ishlarning o'zigina uning qatl etilganiga 90 yil bo'lishiga qaramasdan, Islomxo'janing hali ham xalq xizmatida ekanligidan dalolatdir. Xiva xonligida istibdod va mustamlaka zulmining tobora orta borishi xonlik fuqarolarining 1916-yil qo'zg'oloniga olib keldi. Zulmga qarshi ko'tarilgan isyonchilarda birdamlik, izchillik yetishmadi. Bunga mam-lakat xalqlari oralarida vaqti-vaqti bilan yuzaga chiqib turadigan o'zaro nizolar ham qisman sabab bo'ldi. Bu qo'zg'olon boshlanishidan oxiriga qadar xon hukumati va Rossiya imperiyasining mustamlaka zulmiga qarshi ko'tarilgan xalq harakati edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1 . Alimova Raxima Risqulovna O'rta osiyo xonliklarining qo'shni davlatlar bilan diplomatik va savdo-iqtisodiy munosabatlari.

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Instituti, 2017.

2 . OTAMUROD QO'SHJONOV, NE'MATJON POLVONOV Xorazmdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va harakatlar (XIX asr ikkinchi yarmi- XX asr birinchi choragi) "ABU MATBUOT-KONSALT" MCHJ Toshkent – 2007.

3 . Nosirjon Topildiyev "Qo'qon xonligining Rossiya bilan diplomatik aloqalari tarixidan" Fan nashriyoti 2007.